

# INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6  
ISSUE 1 2026

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ  
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY  
VOLUME-6, ISSUE-1



# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

**BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:**

**MIRZAYEV IBODULLA**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**MIRZAYEV IBODULLA**  
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ  
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

**JABBOROV NURBOY**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**ЖАББОРОВ НУРБОЙ**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**JABBOROV NURBOY**  
DSc, professor (Uzbekistan)

**TAHRIRIY HAY'ATI:**

**Muhiddinov Muslihiddin**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Dilorom Salohiy**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Sodiqov Qosimjon**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Binnatova Almaz Ulvi**

*f.f.d., professor (Ozarbayjon)*

**To'xliyev Boqijon**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Shodmonov Nafas**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Asadov Maqsud**

*f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*

**Yo'ldoshev Qozoqboy**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Jo'raqulov Uzoq**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Funda Toprak**

*f.f.d., professor (Turkiya)*

**Nabiulina Guzal**

*f.f.d., professor (Tatariston)*

**Yusupova Dilnavoz**

*DSc, professor (O'zbekiston)*

**Sirojiddin Xo'jaqulov**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Rahim Ibrohim**

*f.f.d., professor (Afg'oniston)*

**Turobov Abdurahim**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Muhitdinova Badia**

*DSc, professor (O'zbekiston)*

**Muhammadiyev Ahadjon**

*DSc, dotsent (O'zbekiston)*

**Suvonova Jumagul**

*f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*

**Mirzayev Rahmatilla**

*y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)*

**Abdullayeva Albina**

*f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*

**Nurova Gulchehra**

*f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*

**Sultanov Tulkin**

*PhD, dotsent (O'zbekiston)*

**Ubaydullayev Normuhammad**

*PhD, dotsent (O'zbekiston)*

**Ruzmanova Roxila**

*dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)*

**Narziyeva Ma'mura**

*PhD, kotib (O'zbekiston)*

**ILMIY MASLAHAT KENGASHI**

**Xalmuradov Rustam**

*t.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Sirojiddinov Shuhrat**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Eshqobil Shukur**

*O'zbekiston Respublikasida  
xizmat ko'rsatgan madaniyat  
xodimi, shoir (O'zbekiston)*

**Rixsiyeva Gulchehra**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Benedek Peri**

*f.f.d., professor (Vengriya)*

**Olimov Karomatillo**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Dadaboyev Hamidulla**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Shomusarov Shorustam**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Dyu Rye Andre**

*f.f.d., professor (Fransiya)*

**Hamroyev Juma**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Aftondil Erkinov**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Hasanov Shavkat**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Umurova Go'zal**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Xalliyeva Gulnoz**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Alim Labib**

*f.f.d., professor (Afg'oniston)*

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Мухиддинов Муслихиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дилором Салохий**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Содиков Косимжон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Биннатова Алмаз Улви**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)  
**Тухлиев Бокижон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Шодмонов Нафас**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Асадов Максуд**  
д.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Юлдашев Казакбай**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Журакулов Узок**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Фунда Топрак**  
д.ф.н., профессор (Турция)  
**Набиуллина Гузаль**  
д.ф.н., профессор (Татаристан)  
**Юсупова Дилнавоз**  
DSc, профессор (Узбекистан)  
**Сирожиддин Хужакулов**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Рахим Иброхим**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)  
**Туробов Абдурахим**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Мухигдинова Бадиа**  
DSc, профессор (Узбекистан)  
**Мухаммадиев Ахаджон**  
DSc, доцент (Узбекистан)  
**Сувонова Жумагул**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Мирзаев Рахматилла**  
к.ю.н., доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаева Альбина**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Нурова Гулчехра**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Султанов Тулкин**  
PhD, доцент (Узбекистан)  
**Убайдуллаев Нормухаммад**  
PhD, доцент (Узбекистан)  
**Рузманова Рохила**  
доц., отв. секретарь (Узбекистан)  
**Нарзиева Мамура**  
PhD, секретарь (Узбекистан)

## НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

**Халмурадов Рустам**  
д.т.н., профессор (Узбекистан)  
**Сирожиддинов Шухрат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Эшқобил Шуккур**  
Заслуженный работник культуры Республики  
Узбекистан, поэт (Узбекистан)  
**Рихсиева Гулчехра**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Бенедек Пери**  
д.ф.н., профессор (Венгрия)  
**Олимов Кароматилло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дадабаев Хамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Шомусаров Шорустам**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дю Рье Андре**  
д.ф.н., профессор (Франция)  
**Хамроев Джума**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Афтондил Эркинов**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Хасанов Шавкат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Умурова Гузал**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Халлиева Гулноз**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Алим Лабиб**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)

## EDITORIAL BOARD:

**Mukhiddinov Muslikhiddin**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dilorom Salokhiy**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Sodikov Kosimjon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Binnatova Almaz Ulvi**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)*

**Tukhliev Bokijon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Shodmonov Nafas**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Asadov Makhsud**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Yuldoshev Kozokboy**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Jurakulov Uzok**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Funda Toprak**  
*DSc, prof. (Türkiye)*

**Nabiulina Guzal**  
*DSc., prof. (Tatarstan)*

**Yusupova Dilnavoz**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Sirojiddin Khujakulov**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Rakhim Ibrokhim**  
*DSc, prof. (Afghanistan)*

**Turobov Abdurakhim**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Mukhitdinova Badia**  
*DSc, prof. (Uzbekistan)*

**Mukhammadiyev Akhadjon**  
*DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Suvonova Jumagul**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Mirzayev Rahmatilla**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Abdullayeva Albina**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Nurova Gulchekhra**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Sultanov Tulkin**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Ubaydullayev Normuhammad**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Ruzmanova Rokhila**  
*Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)*

**Narziyeva Ma'mura**  
*PhD, Secretary (Uzbekistan)*

## SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

**Khalmuradov Rustam**  
*Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Sirojiddinov Shukhrat**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Eshqobil Shukur**  
*Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)*

**Rikhsieva Gulchekhra**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Benedek Peri**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)*

**Olimov Karomatullo**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dadaboev Khamidulla**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Shomusarov Shorustam**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dyu Rye Andre**  
*Doc. of philol. scien., prof. (France)*

**Khamroev Juma**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Aftondil Erkinov**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Khasanov Shavkat**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Umurova Guzal**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Khallieva Gulnoz**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Alim Labib**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)*

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI**

<b>1. Афтондил ЭРКИНОВ</b> АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
<b>2. Sherxon QORAYEV</b> O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
<b>3. Nigora TO'XTAQULOVA</b> ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
<b>4. Jumagul SUVONOVA</b> ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
<b>5. Zulfiya RASULOVA</b> UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA.....	37
<b>6. Sitara QODIRQULOVA</b> ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

**NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI**


<b>1. Shavkat YANGIBOYEV</b> "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
<b>2. Shaxnoza KAXXAROVA</b> ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
<b>3. Sherxon QORAYEV</b> ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
<b>4. Umida OTAYAROVA</b> "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
<b>5. Dilfuza RAXMATOVA</b> NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
<b>6. Dilafro'z TAMIKAYEVA</b> ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

**NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI**

<b>1. Umida UBAYDULLAYEVA</b> TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
<b>2. Rustamjon JABBOROV</b> BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

**TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA**

<b>1. Iroda ISHONXANOVA</b> O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
<b>2. Roxila RUZMANOVA</b> TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122




**Dilfuza RAXMATOVA**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent,  
Samarqand davlat universiteti,  
E-mail: raxmatovadilfuza99@gmail.com

## NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

**For citation:** Raxmatova Dilfuza. LINGUOPOETIC FEATURES OF SOLECISM IN NAVOI'S GHAZALS. Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412134>

### ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiy g'azallarida soletsizm hodisasining qo'llanishi, uning poetik va stilistik vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda soletsizmning me'yoriy sintaktik qurilmadan ongli og'ish sifatidagi tabiati haqida fikr yuritilib, Navoiy g'azallarida bu hodisaning badiiy-estetik maqsadga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada soletsizmning an'anaviy aruz tizimi va g'azal janri talablari bilan o'zaro munosabati ko'rib chiqilib, uning poetik me'yor doirasidagi ijodiy transformatsiyasi ekanligi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** soletsizm, g'azal, radif, grammatik xatolik, struktur buzilish, aruz tizimi, poetik me'yor, estetik ta'sir.

---

**Дилфуза РАХМАТОВА,**

доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент,  
Самаркандский государственный университет,  
Самарканд, Узбекистан  
E-mail: raxmatovadilfuza99@gmail.com

## ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЛЕЦИЗМА В ГАЗЕЛЯХ НАВОИ

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируется использование феномена солецизма в газелях Алишер Навои, его поэтические и стилистические функции. В исследовании рассматривалась природа солецизма как отклонения от нормативных синтаксических приемов и обосновывался тот факт, что это явление служит художественно-эстетической цели в газелях Навои. В статье также исследуется связь солецизма с традиционной системой аруз и требованиями жанра газели, и определяется, что это творческая трансформация в рамках поэтической нормы.

**Ключевые слова:** солецизм, газель, радиф, грамматическая ошибка, структурное искажение, система аруза, поэтическая норма, эстетический эффект.

**Dilfuza RAKHMATOVA,**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor,  
Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan  
E-mail: raxmatovadilfuza99@gmail.com

## LINGUOPOETIC FEATURES OF SOLECISM IN NAVOI'S GHAZALS

### ABSTRACT

The article discusses the use of the ghazals of Alisher Navoi. Its poetic and stylistic functions are analyzed. The study discusses the nature of solecism as a deviation from normative syntactic devices, and justifies the fact that this phenomenon serves an artistic and aesthetic purpose in Navoi's ghazals. The article also examines the relationship of solecism with the traditional system of aruz and the requirements of the ghazal genre, and determines that it is a creative transformation within the framework of the poetic norm.

**Keywords:** solecism, ghazal, radif, grammatical error, structural distortion, aruz system, poetic norm, aesthetic effect.

### KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyotining yuksak namoyandasi A.Navoiy g'azallarida til va uslub masalasi alohida estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shoir o'z poetik tafakkurida an'anaviy aruz tizimi, qat'iy sintaktik me'yorlar va mumtoz uslub talablariga tayangan holda, ayrim o'rinlarda me'yoriy til qoidalaridan ongli chekinish – ya'ni soletsizm hodisasidan ham mahorat bilan foydalangan.

### ASOSIY QISM

Soletsizm (yunoncha solecismos-nutqdagi me'yoriy buzilish) badiiy matnda grammatik yoki sintaktik me'orning ataylab buzilishi orqali muayyan uslubiy ta'sir uyg'otishga xizmat qiladi. Mumtoz she'riyatda bu hodisa ko'pincha sintaktik qurilmaning o'zgarishi, gap bo'laklarining noodatiy joylashuvi, grammatik moslashuvning buzilishi yoki semantik nomutanosiblik shaklida ko'zga tashlanadi [1].

A.Navoiy g'azallarida ham soletsizm qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. "G'aroyib ussig'ar"ning 371-g'azali "Qilg'il" radifli g'azaldir. Sakkiz baytli bu g'azal asrlar osha el orasida mashhur bo'lib kelyapti. G'azal oshiq qalbning yetuklik va kamolot timsoli bo'lmish komil insonga jo'shqin muhabbati ifodalangan mashhur she'rlardan biri hisoblanadi. Lirik qahramon oshiq tarzida so'z boshlab, yoriga to'g'ridan to'g'ri "qaro ko'zum" deb murojaat qiladi, undan odamgarchilik qilishni, oshiq ko'zi qorasida vatan tutishni so'raydi. "Mardum kebi" ifodasida zimdan "odamdek" degan ma'no ham yashirin. Tasavvuf adabiyotda uchraydigan timsol-istilohlar lug'atlarida ko'z komil inson timsoli sifatida tushuntiriladi. Xuddi komillikka erishgan inson o'zidan kechib, boshqacha aytganda, o'zidagi barcha illatlarni bartaraf etib, faqat Yaratganni ko'rgani, uni o'ylagani kabi, ko'z ham o'zini ko'rmaydi, o'zgalarni ko'radi. O'zi, umuman, yuzga ilohiy go'zallik ramzi deb qaraladi. Ko'z esa – ana shu go'zallik jamlangan asosiy manba. Chunki yuzning bor jozibasi – ko'zda mujassam. Ko'zni sevish orqali ilohiy jamolni yaxshi ko'rish ifodalanadi.

Qora ko'zum, kel-u mardumliq emdi fan qilg'il, A

Ko'zum qarosida mardum kebi vatan qilg'il [6. 210.].

G'azaldagi lirik qahramon ana shu ko'zda nazarda tutilgan komil insonni o'z ko'zining gavhariga aylantirmoqchi. Shu tariqa matla'dan quyidagicha ma'no-mazmun anglashiladi: "Qora ko'zligim, kel endi, odamiylik muravvatini ko'rsatishni o'rgan, ko'zimning qorachig'iga gavhar kabi o'rnashgin, "maskan tutgin". Matla' nihoyatda puxta-pishiq, ohoriy va ta'sirchan. Mumtoz adabiyotshunosligimizda bunday boshlanmalar "husni matla'" yoki "shohbayt" deyilgan. Baytda I shaxs birlikdagi "im" egalik qo'shimchasi "um" shaklida, "mardumliq" so'zidagi "lik" ot yasovchi "liq" shaklida, "endi" payt ravishi "emdi", "gin" buyruq istak mayli II shaxs birlik shakli "g'il" "kabi" sof ko'makchisi "kebi" shaklida qo'llanib soletsizmi hosil qilgan. G'azalda yuz timsoli tasavvufda

ilohiy go‘zallik ko‘rinadigan makon tarzida talqin etiladi. Ko‘ngil ravzasi bu yerda oshiqning intizor qalbini bildiradi. Quyidagi baytda komil inson, ya‘ni pir diydoridan bahramand bo‘lgan oshiq dilining yayrab ketishi aks ettirilgan:

Yuzung guliga ko‘ngil ravzasin yasa gulshan,  
Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il [6. 210.]

Bu baytda birato‘la to‘rtta (“yuzung guli”, “ko‘ngil ravzasi”, “qading hiholi”, “jon gulshani”) istiora qo‘llangan. Lirik qahramon yori yuzining guliga ko‘ngil jannatini gulshan, uning qadd-u qomati niholiga esa jon gulshanini chaman qilishni istaydi. Bu yerda zimdan “jon” so‘zining arab alifbosida yoziladigan ko‘rinishi ham nazarda tutilgan. Chunki bu so‘z o‘rtasida keladigan “alif” harfi tik tayoqcha tarzidagi shaklga ega. Bu esa adabiyotda yorning tik qomatiga o‘xshatilgan. O‘quvchi ko‘z o‘ngida gulzor oralab tik qomat yor yurgandagidek tasavvur uyg‘otadi. Xuddi “jon” so‘zini yozuvda ifodalaganda “alif” (“o”) harfi “jim” (“j”) va “nun” (“n”) harflari o‘rtasida “n” o‘rin olgani kabi, yorning qaddi ham – jon gulshani ichida degan mazmun ilgari suriladi. A.Navoiy ushbu baytda II shaxs egalik qo‘shimchasi “ing” shaklini “ung”, “ni” tushum kelishigi qo‘shimchasini “n” shaklida, “ga” jo‘nalish kelishigini “g‘a”, II shaxs buyruq maylini “g‘il” tarzida qo‘llab, grammatik soletsizmni hosil qilgan.

Navoiy, anjumane shavq jon aro tuzsang,  
Aning boshhoqliq o‘qin sham‘i anjuman qilg‘il.

Maqta‘da lirik qahramon Navoiyga murojaat qila turib, agar jon aro shavq anjumanini tuzsang, uning boshhoqlik o‘qini shu anjumanning shami qilgin, deydi. Maqta‘da yana “jon” so‘zi ishlatilgan. Bu yerda endi shoir “boshhoqlik o‘q”, ya‘ni kiprikning anjumanda jon aro sham (u ham” boshhoqlik o‘q”) qa, ham ”alif” harfiga o‘xshaydi) bo‘lishi tasviri orqali ikkinchi bor ana shunday o‘xshashlikka asoslanadi. Matla’ ko‘z atrofida tasavvurlar bilan boshlangan edi. Maqta‘da ham undan uzoqlashilmadi kiprik haqida so‘z bordi. Bu mutanosiblik g‘azalda tanosub san‘atini yuzaga keltirgan. G‘azalning boshidan oxirigacha har baytda kutilmagan timsol, ifoda va tasvir ishlatiladi. Baytdan baytga o‘tgani sari lirik qahramonning oshiqlik o‘ti balandlab borganini ko‘ramiz. Oxirgi ikki baytda oshiq yor ishqida jondan kechishga tayyor turganini ham bildiradi. Bu ham ishqning kamolga yetganini ifodalashning bir yo‘lidir [6. 371-g‘azal].

G‘azalda “anjumane”, “boshhoqliq”, “aning”, “o‘qin”, “qilg‘il” so‘zlarida soletsizm qo‘llanilgan.

Navoiyning “Deyin” radifli g‘azali mashhur g‘azallaridan biri. G‘azalda soletsizm, ya‘ni til me‘yorida ongli ravishda chekinish hodisasi – poetik maqsadga xizmat qiluvchi uslubiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur g‘azalda ayrim sintaktik qurilmalar mantiqiy-grammatik jihatdan to‘liq yoki odatiy shaklda emas. Bog‘lovchi yoki to‘ldiruvchi tushirib qoldiradi, gap bo‘laklari o‘rnini almashtiradi. Mantiqiy izchillikni buzayotgandek tuyuladigan konstruksiyalarni qo‘llaydi. Bu esa lirik qahramonning ichki hayajoni, iztirobli va oshuhtaligini ifodalashga xizmat qiladi. Yetti baytli bu g‘azalda “deyin” so‘zi faqat radifdagina takrorlanib kelmaydi. Bu so‘z radifda qo‘llanishidan tashqari, yana 12 (jami 20) bor takroriy tarzda qo‘llaniladi. Radd ul-matla’, ya‘ni matla’ni takrorlash san‘ati asosida birinchi misra g‘azalning so‘nggi satri sifatida yana bir karra qaytariladi. “Deyin” (ya‘ni “aytay”) shakli buyruq-istak maylini ifodalovchi fe‘l shakli bo‘lib, har bayt oxirida takrorlanishi natijasida sintaktik mustaqillik susayadi, gaplar ichki jihatdan tugallanmagandek taassurot uyg‘otadi, fikr emotsional tus oladi. Shu jihatdan, radifning o‘zi ham ma‘lum darajada normadan og‘ish, ya‘ni soletsizmni kuchaytiradi.

Bu takrorlar ham g‘azal ohangi-yu jarangini, ham fikr ta‘kidini, ham oshiq his-hayajoni ifodasini kuchaytirgan. G‘azaldagi ohangdorlik faqat qofiya va radif orqaligina ta‘minlanmagan. Baytlarning birinchi misralarida ham ichki ohangdorlik (“yosinmu” –qarosinmu, qahrinmu-zahrinmu...”) mavjud:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,  
Ko‘nglima har birining dard-u balosinmu deyin?!

Ko‘zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,  
Bu kudurat ora ruxsori safosinmu deyin?! [7. 253.]

Gʻazalda boshdan oxir qiyos usulidan foydalaniladi. Bir qarashda, gʻazal boshqa ishqiy mavzudagi lirik sheʼrlardan keskin farq qilmagandek, oshiq maʼshuqaning, odatdagidek, chiroyini turli uzvlari, yaʼni qoshi, koʻzi, sochi, yuzi, labidan chiqqan soʻzlar va kiyimi, yaʼni moviy koʻylagi, gulrang toʻni taʼrifi orqali tasvirlab, ishqiy iztiroblarini bayon etayotgandek tuyuladi. Biroq, aslida, buyuk shoir qalamining qudrati bilan ana shu soʻz va qiyoslar zamirida ajib bir badiiy goʻzallik yashiringan. Bu oʻquvchida ayrica zavq-shavq uygʻotadi.

Gʻazalda “mi” soʻroq yuklamasi “mu”, “koʻnglima” soʻzida “ga” joʻnalish kelishigi “a” tarzida grammatik soletsizmni, “kirpigi” soʻzi leksik soletsizm koʻrinishini namoyon qilgan. Soletsizm bu gʻazalda nutqning tabiiy mantiqiy oqimini buzib, dramatik pauza hosil qiladi, subyektiv hissiyotning ustuvorligini koʻrsatadi. Natijada grammatik “nomuvofiqlik” aslida estetik maqsadga xizmat qiladi, oshiqning iztirobi va murojaat ohangini kuchaytiradi.

Navoiyning “Kelmadi” radifli gʻazali ishqiy mavzuda, oʻzbek tilidagi sheʼriyatda eng koʻp ishlatilgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), yaʼni “foilotun-foilotun-foilotun-foilon (yoki foilon) vaznida yozilgan. Taqteʼsi: -V-/-V-/-V-/-V- (yoki -V~). Gʻazal anʼnaviy yetti baytdan iborat. Radifda oʻzbekcha soʻz (“kelmadi”) ishlatilgan va qofiyadagi sakkiz (gulroʻ-uyqu-badxoʻ-qorongʻu-kulgu-su-oʻtru-qaygʻu) soʻzidan oltitasi – oʻzbekcha, ikkita “gulroʻ” va “badxoʻ” – tojikcha. Gʻazalda badiiy jihatdan shunday qatʼiy bir qoidaga amal qilinganki, har bir baytda kamida bir tazod sanʼati uchraydi. Bu badiiy sanʼat gʻazalda asosiy ifoda va tasvir vositasiga aylangan.

“Kecha kelgumdur” – debon ul sarvi gulroʻ kelmadi,

Koʻzlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi [8.320.]

Matlaʼda lirik qahramon kecha (buni “kechasi” deb ham, “kecha”, yaʼni bir kun oldin deb ham tushunish mumkin) “sarvi gul” (gul yuzli sarv, yaʼni tik qomatli yor) kelaman deb, kelmadi, shuning uchun tong otgunga qadar koʻzlarimga uyqu kelmadi, deydi. Shuning oʻzidayoq lirik qahramon holati, u chekayotgan iztirob maʼlum qilinadi. Betoqat oshiq har zamon-har zamon chiqib, maʼshuq yoʻliga intizor boʻldi, hatto jon uning ogʻziga keldi-yu, u yomon feʼl-atvorga ega shoʻx goʻzal kelmadi. Gʻazalning dastlabki besh baytida boshdan-oxir vaʼda berib, soʻzida turmagan yorni kutakuta chekkan azob-iztiroblari haqida gapirib kelingan boʻlsa, bu baytda birdan, kutilmaganda lirik chekinish qilinadi. Lirik chekinish “begona bayt” deyiladi. Bu yerda nozik falsafiy-tasavvufiy masala koʻtarilgan. “Yoʻl” baytda tasavvufni, Alloh ishqini bildiradi. Bu yoʻlda esa sadoqatli talabgor, yaʼni oshiq topilmayapti. Ayni gap bilan shoir pirga ishora qilgan. Chunki pir hamisha bu yoʻlni muriddan avvalroq bosib oʻtgan, yaʼni “avvalqadam” boʻladi. Avvalqadam oshiq esa Alloh vasliga yetib, maʼshuqqa aylanadi. Murid ana shu shayxning etagidan tutib, unga ergashmoqchi. Chunki Allohni sevish uchun murid avval pirini sevishi kerak. Boshqacha aytganda, Allohga muhabbat yoʻli bevosita pir qalbi orqali oʻtadi. Tasavvufda pirga komillik timsoli sifatida qaraladi. Shuning uchun ushbu gʻazalda majoziy tasvir orqali ilohiy ishq kuylangani, lirik qahramon begona baytda ishqda undan koʻra “avvalqadam” boʻlgan “tolibi sodiq”, yaʼni pir izlayotganiga hech qanday shubha boʻlmasligi kerak.

Tasavvufiy maʼnoda esa Yaratganning ishq bilan kuyib-yonib yashayotgan kishining gʻam chekishiga oʻrin qolmaydi. Shuning uchun ham lirik qahramon yorining kelmaganiga, ochiqroq ifodalaganda, bu dunyoda Alloh vasliga yetolmayotganiga koʻp ham gʻam chekavermay, Yaratgan zotni sevishini davom ettiraversin, shunda barcha kulfatlar bartaraf boʻlaveradi...

Ey Navoiy, boda birla xurram et koʻnglung uyin,

Ne uchunkim, boda kelgan uyga qaygʻu kelmadi.

Bayt-asli oshiqona gʻazalning maqtaʼsi. Lekin boda tilga olindimi, demak, gʻazalga rindonalik ruhi ham qoʻshildi. May taʼrifida kelgan gʻazallar rindona gʻazallar deyiladi. Koʻrinib turibdiki, bu gʻazalda oshiqonalik bilan rindonalik oʻzaro uygʻunlashgan. Demak, Navoiy asarlari magʻzini chaqishda ilm juda kerak. Bu shoirning oʻta mashhur gʻazallaridan hisoblanadi. Hozirgacha ham qoʻshiq qilib kuylanadi. Koʻp hofizlarimiz shu gʻazal ijrosida oʻz kuchini sinab koʻradi. Kuyda haqiqiy yor, yaʼni Alloh vasliga yetolmaslik dard-u gʻami, iztirobi aks etgan.

Gʻazalning birinchi baytida “kelaman” feʼli “kelgumdur” shaklida ifodalangan. Bunda hozirgi-kelasi zamon qoʻshimchasi “a” va I shaxs birlikdagi shaxs-son shakli “man”- “gumdur”,

“deb” ravishdosh shakli “debon” tarzida qo‘llangan. Keyingi baytda “ko‘nglung” so‘zidagi II shaxs egalik “ing” shakli “ung” tarzda qo‘llanib soletsizmni tashkil qilgan.

Navoiyning musalsal usulida yozilgan “Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?” g‘azalida savol-javob usulidan unumli foydalanilgan. Bunda birov savol beradi, ikkinchi taraf shu savolga javob qaytaradi. Shuning uchun “Farhod va Shirin” dostonida Xisrav bilan Farhodning aytishuvi ham aynan ana shu tarzda ifodalangan:

Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?”

Derki: “Bois bo‘ldi jism ichra marazning shiddati”.

Jismdin so‘rsamki: “Bu za‘fing‘ga ne erdi sabab?”

Der: “Anga bo‘ldi sabab o‘tluq bag‘irning hirqati”.

Chun bag‘irdin so‘rdim, aytur: “Andin o‘t tushti manga,-

Kim ko‘ngulga shu‘la soldi ishq barqi ofati”[9.304.].

To‘liq bir g‘azalni savol-javob tarzida bitish Navoiydan oldin yashab, ijod qilgan qalam sohiblari ijodida ham uchraydi. Ammo g‘azal ayni san‘atni oliy darajada qo‘llashi va mantiqiy asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi. Lirik qahramon ba‘zan “men” markazida gapirib, keyingi misrada umumlashma shaklga o‘tadi. Bu ham sintaktik me‘yorning barqaror emasligini ko‘rsatadi. Bunday o‘zgarish ruhiy beqarorlikni ifodalaydi. Radif g‘azalda “dermen” fe‘lining takrori sintaktik jihatdan bir xil qolipni takrorlasa-da, har gal yangi semantik yuklama oladi. Natijada sintaktik parallelizm bilan birga yashirin soletsizm yuzaga keladi.

Muallif hech kimning xayoliga kelmagan tarzda baytlarni baytlarga mantiqan bog‘laydi. Jon, jism, bag‘ir, ko‘ngil, ko‘z bilan bo‘lib o‘tgan savol-javoblarda kuchli izchillik va o‘zaro ketma-ketlik bor. Jon aybni – jismga, jism-bag‘irga, bag‘ir – ko‘ngilga, ko‘ngil – ko‘zga yuklaydi. Oxiri lirik qahramon ishqda yonish uning azaliy qismati ekanini tan oladi. Soletsizm nutqda grammatik yoki sintaktik me‘yorning ongli ravishda buzilishi bo‘lib, she‘riyatda emotsional-ekspressivlikni oshirish, lirik qahramon ruhiy iztirobini kuchaytirish vazifasini bajaradi [2.15 b.]

G‘azalning birinchi baytida “ga” jo‘nalish kelishigini “g‘a” shakli, “deyman” I shaxsdagi so‘zning “dermen” varianti, ya‘ni “man” qo‘shimchasi, ikkinchi baytdagi “so‘rasam” fe‘li “so‘rsam”, uchinchi baytda “so‘rdim” tarzida qo‘llanib, soletsizmni hosil qilgan. “Jong‘a chun dermen...” g‘azalida soletsizm lirik kechinmaning kuchayishiga xizmat qiladi, ruhiy iztirobni sintaktik buzilish orqali ko‘rsatadi. Nutqqa og‘zaki va samimiy ohang beradi, radif orqali takroriy drammatizm hosil qiladi.

Navoiy g‘azallarida soletsizm, avvalo, poetik intensivlikni oshirish, obrazning ichki drammatizmini kuchaytirish hamda fikrning emotsional yukini ta‘kidlash vositasi [www.ziyouz.com] sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir ba‘zan grammatik izchillikni buzish orqali lirik qahramon ruhiyatidagi iztirob, hayrat, ishqiy kechinma yoki falsafiy mushohadani yanada ta‘sirchan ifodalaydi. Bu esa tilning nafaqat kommunikativ, balki estetik imkoniyatlarini ham kengaytiradi [3].

Navoiyning “Yo‘q” radifli g‘azali baytlardagi mantiqiy bog‘liqlik nuqtayi nazaridan “Jong‘a chun dermen:”Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?..” g‘azaliga o‘xshaydi. G‘azal ramali musammami mahzuf (yoki maqsur), ya‘ni foilotun-foilotun-foilotun-foilon (foilon) vaznida bitilgan. Shoir matla‘ning o‘zidayoq yordan ayri ko‘ngilni sultoni yo‘q mamlakatga, keyin esa sultoni yo‘q mamlakatni joni yo‘q jismga o‘xshatadi:

Yordin ayru ko‘ngil – mulkedurur, sultoni yo‘q,

Mulkkim, sultoni yo‘q, jismedurkim, joni yo‘q [6.178.].

Ikkinchi baytda mulohaza shu tarzda davom etadi: “Ey musulmonlar, jonsiz jismdan qanday hosil unadi, u gul-u rayhoni yo‘q bir qora tuproqning o‘zginasi-ku”. Uchinchi baytda aytiladiki: “Agar gul-u rayhoni yo‘q bir qora tuproq bo‘lsa, u bir porlab turgan Oyi yo‘q qorong‘i kecha ekan-da”. To‘rtinchi baytda aynan ana shu qorong‘i kecha ta‘rifi ketadi: “Porlab turgan Oyi yo‘q qorong‘i kecha bo‘lsa, u hayot sarchashmasi yo‘q zulmat ekan-da”. Beshinchi baytda aynan shu hayot sarchashmasi yo‘q zulmat lirik qahramonni do‘zaxiy kimsaning jannatdan noumidligi haqida so‘zlashga undaydi, do‘zax esa shunday bir xumordirki, unda mastlikning imkoni yo‘q (mastlik

deganda shoir ishqni, ya'ni Yaratganga intilishni ko'zda tutgan). Maqta'da lirik qahramon Navoiyga murojaat qilib: "Unga shunday uqubatlar yuborilganki, hajridan dardi, lekin vaslidan darmoni yo'q", – deydi. Navoiyning "Yo'q" radifli g'azalida soletsizm grammatik va sintaktik me'yorning ongli buzilishi orqali badiiy-ekspressiv ta'sirni kuchaytirish usuli – muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. G'azalda "dan" shaklining arxaik shakli "din", "mulkedurur" so'zidagi "durur" shaklida "dir" bog'lamsi takrori grammatik, "ayru ko'ngil" iborasi frazeologik solletsizmni tashkil etgan. Bu g'azalda soletsizm inkor dramatismni kuchaytiradi, lirik qahramonning ichki bo'shlig'ini sintaktik bo'shliq bilan uyg'unlashadi. Radif orqali ritmik keskinlik yaratadi, nutqqa og'zaki, iztirobli ohang beradi. Navoiy "Yo'q" radifli g'azalida soletsizmni ongli poetik strategiya sifatida qo'llaydi. Grammatik to'liqlikdan voz kechish, elliptik tuzilmalar va inversiyalar orqali inkor kayfiyati chuqurlashtiriladi. Sintaktik buzilish mazmuniy iztirob bilan uyg'unlashuiv, kuchli poetik effect hosil qiladi [4].

Navoiyning g'azallari tahlilida ko'rinadiki, shoir har bir g'azaliga olam-olam ma'no yuklaydi, kutilmagan, ohoriy, jozibador ifoda, bayon va tasvir vositalaridan foydalaniladi, qalamining kuchini ko'rsatadi. Ana shunday asarlaridan biri an'anaviy yetti baytdan iborat "Bo'ldim sanga" radifli g'azalidir. Bu g'azal ramali musammani mahzuf (yoki maqsur, ya'ni foilotun-foilotun-foilotun-foilon (yoki foilon) vaznida yozilgan. G'azal baytlari mazmunini bir-bir tahlil etishning asar umumohiyatini bilishda alohida o'rni bor. Shuning uchun baytlar ma'no -mazmuni bilan tanishib, ulardagi badiiy ifoda va tasvir xususiyatlarini aniqlash mumkin:

Ko'rgali husningni zor-u muftalo bo'ldim sanga,  
Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldim sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngil,

Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo'ldim sanga [6.22.].

Matla'da: "Husningni ko'rish uchun senga zor-u asir bo'lib qoldim. Senga oshno bo'lgan kunim qanday balolik kun ekan?" – deyilgan. Bu yerda ko'ngilga ishq tushishi bilan oshiq uchun mashaqqatli jarayon boshlanishi ta'kidlangan. Ikkinchi baytning ma'no-mazmuni quyidagicha: "Sendan ko'ngil uzay deb har qancha uringanim bilan (bo'lmadi) kundan kunga badtarroq senga muftalo bo'lib qolaverdim". Mantiqiy jihatdan bu baytda tazod san'ati keltirilgan. Uchinchi baytda: "Men qachon senga,"Menga vafo qil", – deb aytgan bo'lsam, menga ustma-ust zulm qilaverding, sen qachon menga."Fido bo'lgin", – degan bo'lsang, senga fido bo'ldim-ku", – degan fikr ilgari surilgan. Bu qo'shmisrada tazod san'ati yanada kuchliroq tus olgan: qachon oshiq yoridan vafo qilishni so'ragan bo'lsa, teskarisini qilgan, lekin, aksincha, qachon yor oshiqdan fido bo'lishni so'ragan bo'lsa, unga javoban yor, albatta, fido bo'lgan. To'rtinchi baytda lirik qahramon aynan kimga oshiqligini aniqlashtirib oladi va bunda yorining o'zini aybdor" qiladi: "Qaysi pariga o'xshash qomatli go'zalga bunday darajada oshiqi devona bo'lib qolding?" – deb so'rasang, ey pariqomatligim, menga nima qilsang qilki, men seni sevib, devonang bo'lib qoldim". Bu baytda shoir kam so'z qo'llab, ko'p ma'no chiqarish mahoratini ko'rsatgan. Chunki radifda kelgan "bo'ldim sanga" so'zlari mantiqan "telba bo'ldim sanga" deb tushunishni taqozo etadi. Chunki baytning birinchi misrasidagi savolda gap kim telba bo'lgani haqida ketayotgan edi. Mumtoz adabiyotshunosligimizda mahoratning bunday usuli balog'at usuli deyilgan. Bu baytlarda "senga" so'zi g'azalning radifi sifatida "sanga" tarzida qo'llanib leksik xatolikni, "ne balolig' kun", "kun-kundin batarrak" semantik birliklarida "lig'", "rak" qo'shimchalari solletsizmning ko'rinishi hisoblanadi.

Beshinchi baytda lirik qahramon to'g'ridan to'g'ri o'z ko'ngliga murajaatga o'tadi: "Ey ko'ngil, men nasihatlariga quloq solmadim, sen ham ovora bo'ladigan bo'lding, (boshingdagi) yuz balo yetmaganidek, men ham senga bir balo bo'ldim". Ma'lumki, inson hayoti hech qachon mashaqqatsiz kechmaydi. Ammo u ishq yo'liga kirsam, mashaqqati yanada ortadi. Bu yo'lda lirik qahramon ana shu mantiqqa suyanib, ko'ngling ishq yo'liga kirgani uchun yuz balosiga yana bir balo orttirganini bayon etyapti. Oltinchi baytda soqiyga murajaat qilinadi: "Ey soqiy, mansab-lavozimlardan voz kechib, senga gado bo'lgunga qadar ham doim Jomi Jam bilan Xizr payg'ambar suvi mening nasibim bo'ldi":

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,

Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo‘ldim sanga.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu qo‘shmisra g‘azaldagi begona bayt hisoblanadi. Albatta, begona baytni asardan butunlay uzilib qolgan parcha tarzida tushunmaslik kerak. Har holda, shoir oldingi baytlardagi ma’no-mantiqdan kelib chiqilganda, nisbatan kutilmagan bir fikrni ilgari suradi. Soqiy timsolida ham piri komil, ham yori aziz ko‘zda tutilgan. Baytda talmeh san’ati qo‘llangan.”Jomi Jam” – afsonaviy Jamshid podshoh yasattirgan qadah. Tasavvufiy adabiyotda u vasl sarxushligi, ya’ni mastligini anglatadi. Bu timsolda ramzan ko‘ngilda yor aks etishiga ishora ham mavjud. Sharqda Xizr payg‘ambar abadiylik suvini ichgani uchun hamisha tirik yashaydi, degan qarash mavjud. Shoir bu yerda shundan foydalangan. Jomi Jamda ham, Xizr suyida ham ramzan piri komil qalbiga ishora bor. Aytilmoqchiki, Alloh ishqidan mast bo‘lgan, abadiy, boqiy zot vasliga intilgan oshiq uchun mansab-lavozimlarning zarracha ahamiyati yo‘q. Boshqacha ifodalaganda, Alloh vasliga erishaman, abadiylik baxtiga musharraf bo‘laman, degan kishi mansab-lavozimlarga ko‘ngil qo‘ymasligi, ulardan voz kechishi, kamida, ustun turishi, ya’ni darvesh bo‘lishi lozim. Baytda “bilan” sof ko‘makchisi “birla”, “dir” kesimlik shakli “dur” tarzida qo‘llanib grammatik solletsizmni,”“suvi” so‘zi “suyi” shaklida leksik solletsizmni, “tarki joh aylab” leksik birligi frazeologik solletsizmni namoyon etgan.

Shuningdek, Navoiy poetikasida soletsizm aruz talablari, qofiya va radif tizimi bilan uyg‘un holda qo‘llanadi. Ya’ni me’yoriy sintaksisdan chekinish tasodifiy emas, balki vazn va ohangni saqlagan holda badiiy maqsadga bo‘ysundirilgan holda amalga oshiriladi. Natijada sintaksis “buzilish” aslida yuqori darajadagi poetik tartibning bir ko‘rinishiga aylanadi [4].

Alisher Navoiy g‘azallarida soletsizm oddiy grammatik xató emas, balki ongli stilistik usul sifatida shakllanadi. U shoirning individual uslubini belgilovchi, lirik nutqni jonlantiruvchi hamda matnning semantik va emotsional qatlamlarini boyituvchi muhim poetik vosita hisoblanadi.

#### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Solecism – Literary Device (Poem Analysis):<https://poemanalysis.com/literary-device/solecism>
2. В. Jirmunskiy. Vvedeniye v metriku. – Leningrad: Akademiya, 1925. – 15 b.
3. Poem Analysis Solecism (Wikipedia, lingvistik ta’rif): <https://en.wikipedia.org/wiki/Solecism>
4. Википедия. Study.com, Solecism Definition & Examples study.com
5. Apollonius Dyscolus – On Solecism; Verbs and Their Arguments (John Benjamins)
6. A.Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent, 2024. 371-g‘azal.
7. A.Navoiy. Navodir ush-shabob. 2-devon. – Toshkent, 2024. 483-g‘azali.
8. A.Navoiy. Badoye’ ul-vasat. 3-devon. – Toshkent, 2004. 608-g‘azali.
9. A.Navoiy. Favoyid ul-kibar. 4-devon. –Toshkent. 2024. 597-g‘azali.
10. www.ziyouz.com

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ  
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

## “ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

### MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**MUROJAAT UCHUN MANZIL:**  
Tel.: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

## ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

### ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

**НАШИ КОНТАКТЫ:**  
Тел.: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

## “ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

### REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

**CONTACT ADDRESS:**  
Phone: +99891 527 68 22  
Telegram ID: +998915276822  
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru